

O‘ZBEK OILALARI AXLOQIY MUNOSABATLARIDA DIN OMILI VA DINIY TARBIYA.(ISLOM DINI MISOLIDA)

Toshkent shahar Sirg‘ali tumani

**Toshkent davlat pedagogika
universiteti tayanch doktoranti**

O‘zbekiston tarixi ixtisosligi

Qurbonova Guzal Saydaxmatovna

Annotatsiya: Oila har bir inson hayotidagi eng muhim dargohdir. Agar oila tinch-totuv, bir-biriga nisbatan mehr bilan yashasa u yerga allohning barakasi yog‘iladi. Ushbu maqolada o‘zbek oilalari axloqiy munosabatlarida din omili va diniy tarbiyaning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: oila, jamiyatning ijtimoiy-ma‘naviy bo‘g‘i, muqaddas robita, his-tuyg‘ular, dunyoqarash, tafakkur, jamiyat, ayol, insoniy qadr, ilohiy ko‘rsatmalar, erkaklar, xotinlar.

ФАКТОР РЕЛИГИИ И РЕЛИГИОЗНОГО ВОСПИТАНИЯ В ПРАВСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЯХ УЗБЕКСКИХ СЕМЕЙ (НА ПРИМЕРЕ ИСЛАМА)

Сиргалинский район города Ташкента

Ташкентская государственная педагогика

аспирант университета

История Узбекистана специальность

Курбанова Гузаль Сайдахматовна

Аннотация: Семья занимает самое важное место в жизни каждого человека. Если семья живет мирно и с любовью друг к другу, на нее снизойдет благословение Божие. В данной статье говорится о религиозном факторе и значении религиозного воспитания в нравственных отношениях узбекских семей.

Ключевые слова: семья, социально-духовная связь общества, сакральная связь, чувства, мировоззрение, мышление, общество, женщина, человеческая ценность, божественные наставления, мужчины, жены.

THE FACTOR OF RELIGION AND RELIGIOUS EDUCATION IN THE MORAL RELATIONS OF UZBEK FAMILIES (IN THE EXAMPLE OF ISLAM)

Sirgali district of Tashkent city

Tashkent state pedagogy

PhD student of the university

History of Uzbekistan specialty

Kurbanova Guzal Saydakhmatovna

Abstract: Family is the most important place in every person's life. If the family lives peacefully and with love towards each other, God's blessing will fall on it. This article talks about the religious factor and the importance of religious education in the moral relations of Uzbek families.

Key words: family, socio-spiritual link of society, sacred bond, feelings, worldview, thinking, society, woman, human value, divine instructions, men, wives.

Har bir insonning taqdiri, kelajak hayotidagi yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizligi, baxtli yoki baxtsizligi, kasb tanlashi, hattoki kayfiyati, uning oilaviy muhiti bilan bog'liqdir. Insonning o'zi oilaning taqdirini belgilaydi. Jamiyatning ma'naviy qiyofasi oilalarning qandayligiga bog'liqligi azaliy haqiqat. Chunki, oila jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy bo'g'ini, kichik bir vakili bo'lib, aynan oila zaminida xalqimizning bugungi kuni va kelajagi bunyod etiladi. Agar oilada tartib-intizom bo'lsa, uning a'zolari shu xislatlarini xizmat jarayoniga ko'chiradi va ijtimoiy mehnat faoliyatlarida qo'llaydilar. Bu esa, ularning o'z xizmat vazifalarini yuksak darajada bajarishlariga sabab bo'ladi. Oila bu odobi axloq, xushmuomlalik, mehnatsevarlik asosida qurilgan bo'lishi, insonlar o'rtasidagi munosabat va muloqotlarda o'ta muhim va shaxsning fe'l-atvori, yurish-turishida alohida ahamiyat kasb etadi. Agar oila o'z farzandini Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalasa, bu his-tuyg'u unga butun hayoti davomida hamroh bo'ladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan

barkamol, maqsadga intiluvchan va sergʻayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir,” – degan edi.

Jamiyatning muqaddas maskani, eng asosiy tarbiya makoni oiladir. Oiladagi ota ibrati, ona mehri, bobo va buvilar oʻgʻitlari orqali milliy qadriyatlarimizga boʻlgan imon-eʼtiqod, halollik, mehr-oqibat avloddan avlodga oʻtadi, farzandlarimiz ongi va qalbida muhrlanib boradi. Iqtisodiy jihatdan farovon, ijtimoiy-axloqiy va gʻoyaviy muhiti sogʻlom oila negizida yuzaga kelgan jamiyat va davlatning poydevori mustahkam boʻladi. Chunki bunday oilalarda maʼnaviy barkamol inson voyaga yetadi, uning his-tuygʻulari, dunyoqarashi, tafakkuri el-yurtga halol xizmat qilishdek insonparvarlik gʻoyalari bilan sugʻorilgan. Oʻzbeklarda oilaning rahbari ota hisoblanib, u oilani moddiy jihatdan taʼminlashga masʼuldir. Alloh taolo insoniyat naslining nikoh yoʻli bilan davom etishini iroda qilib, Oʻzining soʻnggi va mukammal dinida bunga oid barcha hukmlarni bayon etgan. Shuning uchun dinimizda ushbu muqaddas robita – nikoh tufayli vujudga keladigan oilaga katta eʼtibor beriladi. Islom dini nikohni, oilaning shaʼnini qanchalik himoya qilishini, maxluqotning gultoji boʻlmish inson naslining davomiyligini taʼminlovchi ilohiy koʻrsatmalar Qurʼoni karimda ham bosh mavzulardan biri ekanini anglash uchun Niso surasidan ikki oyat va ularning tafsiri bilan tanishish kifoyadir.

«Erkaklar xotinlar ustidan (oilada boshligʻi sifatida doimiy) qoim turuvchilardir. Sabab – Alloh ularning ayrimlarini (erkaklarni) ayrimlaridan (ayollardan baʼzi xususiyatlarda) ortiq qilgani va (erkaklar oʻz oilasiga) oʻz mol-mulkidan sarf qilib turishlaridir. (Ayollar ichida) solihalari – (Allohga va eriga) itoatli, gʻoyibga Alloh saqlaganicha himoyatlilardir (yaʼni erining sirini, molini va obroʻsini saqlovchidir). Xotinlarning itoatsizligidan qoʻrqsangiz, avvalo ularga nasihat qiling, soʻngra (bu taʼsir qilmasa) ularni oʻrinlarda (aloqasiz) tark eting, soʻngra (bu ham kor qilmasa) ularni (majruh boʻlmagudek darajada) uring. Ammo sizga itoat qilsalar, ularga qarshi (boshqacha) yoʻl axtarmang. Albatta, Alloh oliy, ulugʻ Zotdir» (34-oyat). «Agar (er-xotinning) oralari buzilib ketishidan qoʻrqsangiz, er oilasidan bir hakam,

xotin oilasidan bir hakam yuboring. Agar (er-xotin) islohni xohlasalar, Alloh o'rtalarini muvofiqlashtirgay. Albatta, Alloh bilimdon, xabardor Zotdir» (35-oyat). Albatta, jamiyat xayr-baraka ila rivoj topib borishi uchun unda tartib-intizom, tinchlik-omonlik hukm surishi, muayyan bir rahbar bo'lishi lozim. Islom ta'limotiga ko'ra, oila jamiyatning asosidir. Shunday ekan, oilaning ham rahbari bo'lishi kerak. Ana shu rahbarlik erkakka berilgan.

Bugungi kunda dunyoning yetakchilari hisoblangan G'arb davlatlarida oila institutining ahvoli naqadar halokatli jar yoqasiga kelib qolgan barchamizga ma'lum. Ammo afsuski, o'zini musulmon sanab yurganlar orasida ham oilaga oid, er-xotinning haq-huquqlariga, burch va majburiyatlariga oid qonun-qoidalarni bilmaydiganlar, bilsa ham ularni pisand qilmaydiganlar paydo bo'lib, jamiyatimizda oilaviy muammolar, qo'ydi-chiqdilar ko'payib qoldi. Agar bunda kimsalar mazkur ko'rsatmalarning shariatning hukmi, Alloh taoloning amri ekanini his qilsalar edi, bugungi kunda yechimini kutib yotgan qator muammolar mutlaqo vujudga kelmagan bo'lar edi. Birgina oyatdagi hukmlar buzilmasa yoki ularga rioya qilinsa, butun insoniyatning taqdiriga, o'sib kelayotgan avlodning kelajagiga xavf soladigan vaziyat yuzaga kelib qolmagan bo'lar edi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash joizki, Oilada ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqaror bo'lib turishida, farzand tarbiyasida onaning, ayolning o'rni beqiyos. Farzandlarimizning oilada shakllangan imon-e'tiqodi, odobi, g'ururi, iftixori, oriyati, mahalla muhitida mustahkamlanib boradi. Oilada imon-e'tiqodli oriyatli etib tarbiyalangan qiz yoki o'g'il mahallaning sha'ni, obro'si, kelajagi uchun qayg'uradi. Mahallada yuzaga kelgan har qanday noxushliklarga barham berishga intiladi. Tarix saboqlaridan ma'lumki, inson qalbiga bunyodkor g'oyalarni singdirish ma'naviy barkamollikni ta'minlaydi. Bu kabi bunyodkorlikka da'vat umuminsoniy va diniy qadriyatlarimizga hurmat, ularni sevib o'qish va uqishda ham mujassam. Bunday tarbiya bolalarga diniy qadriyatlarimizning sarchashmalari Qur'oni karim, hadisi shariflar, ajdodlarimiz ma'naviy merosi orqali singdirib kelingan.

Jahon madaniyati va ma'naviyatiga katta hissa qo'shgan Ibn Sino, Farobiy, Navoiy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'beklarni dunyoga keltirib tarbiyalagan momolarimizning ham o'zlari ma'naviy barkamol bo'lganliklariga shubha yo'q. Oilalar birligi jamiyatni tashkil etib, jamiyat ustunlari bo'lgan zamonaviy ayollar ham sog'lom fikrlashi vatanimiz taraqqiyoti uchun iqtidorli yoshlarni tarbiyalashdek mas'uliyatni his qilmoqlari zarur. Ayolning insoniy qadrini joyiga qo'yish, har qanday tajovuzkorlikdan asrash, ijtimoiy hayotdagi o'rnini o'z vaqtida anglab yetish jamiyatda barqarorlikni hukm surishi uchun moddiy va ma'naviy zamindir. Chunki, ijtimoiy hayotda muqaddas dargoh hisoblanmish oila ayol bag'rida vujudga kelar ekan, bu ham davomiylik kasb etadi. Bugungi farzand qiz vaqt o'tib ona, buvi bo'ladi. Ayollar va ularning erkinligi, turmush sharoitlari qanchalik qulay bo'lsa, ayolning kelajak oldidagi mas'ulligiga shuncha katta imkoniyatlar ochiladi. Bu esa xotin-qizlarimizni yurt tinchligi xalq farovonligi uchun halol mehnat tufayli ortirgan obro'-e'tibori bilan ham bog'liq. Oilada baxtli, hayotda o'z o'rnini topgan ayol farzandlari kelajagiga ham bee'tibor bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida.
2. M.O'rmonova. Islomda oilaning muqaddasligi. 2021-07-30. <https://qoshtepa.uz/site/view/news/2420>
3. At-Termiziy. Shamoili Muhammadiya. Sayid Mahmud Taroziy-Alixon to'ra tarjimasida. T.: "Mehnat" nashr, 1991.
4. At-Termiziy. Sahih at-Termiziy. A.Abdullo tarjimasida. T.: G'.G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 1993.
5. Ismoil Mahdum. Toshkentdagi "Mushafi Usmoniy" tarixi. T.: 1996.
6. Imom al-Buxoriy. Al-Jomi as-Sahih: IV jild. T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1993.
7. 10. Imom al-Buxoriy. Al-Adab al-Mufrad. T.: O'zbekiston, 1990.